

PRESS-RELIZ

📢 SAMARQANDDA “INFOTEACH–2026” RESPUBLIKA FORUMIGA START BERILDI

Bugun Samarqand shahrida Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi hamkorligida tashkil etilgan “INFOTEACH–2026” respublika forumi o‘z ishini boshladi.

Samarqand arxitektura va qurilish institutida o‘tkazilayotgan mazkur forum axborot texnologiyalari va raqamli ta’lim yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish hamda zamonaviy innovatsion yondashuvlarni ommalashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Forumning ochilish marosimida viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari S. Mirzayev so‘zga chiqib, bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini raqamlashtirish, yoshlarni zamonaviy IT bilimlari bilan qurollantirish hamda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ta’kidladi.

Shuningdek, u forum o‘qituvchilar uchun ilg‘or tajriba almashish, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishda muhim platforma bo‘lib xizmat qilishini qayd etdi va barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyat tiladi.

Forum dasturi doirasida:

- ◆ sun‘iy intellekt va raqamli ta’lim platformalaridan samarali foydalanish;
- ◆ kiberxavfsizlik va pedagoglarning raqamli mas’uliyati;
- ◆ informatika fanini o‘qitishda zamonaviy metodika;
- ◆ ta’lim tizimida sun‘iy intellektning o‘rni;
- ◆ interfaol sessiyalar hamda innovatsion yondashuvlar kabi dolzarb mavzular muhokama qilinmoqda.

Tadbir davomida respublikaning turli hududlaridan tashrif buyurgan soha mutaxassislari, professor-o‘qituvchilar, IT ekspertlari hamda amaliyotchilar ma’ruza va taqdimotlar bilan ishtirok etmoqda.

Forum yakunida eng faol qatnashchilar sertifikat va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanishi rejalashtirilgan.

“INFOTEACH–2026” forumi mamlakatimiz ta’lim tizimida raqamli transformatsiyani jadallashtirish, pedagoglarning zamonaviy bilim va

ko'nikmalarini mustahkamlash hamda innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyat kasb etadi.

Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi axborot xizmati

Tel:55-704-73-00